

## FAXRIYOR SHE'RLARIDA BADIYAT

Sadoqat Hamrayeva

ToshDO‘TAU talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada shoir Faxriyor she'rlaridagi badiiy-estetik jihatlar tahlil etiladi. She'rlaridagi o'ziga xos (original) badiiy fikrlar haqida xulosalar beriladi. Adibning ijodiga xos uslubi haqida, she'rlaridagi ma'no va shakl mutanosibligi to'g'risida muayyan xulosalar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek adabiyoti, she'riyat, Faxriyor ijodi. Tahlil va xulosalar.

**Аннотация.** В данной статье анализируются художественно-эстетические аспекты стихотворений поэта узбекского поэта Фахриёр. Делаются выводы об оригинальных художественных идеях в его стихах. Делаются определенные выводы о стиле творчества автора, соотношении смысла и формы в его стихах.

**Ключевые слова:** узбекская литература, поэзия, творчество Фахриёра. Анализ и выводы.

**Annotation.** This article analyzes the artistic and aesthetic aspects of the poems of the Uzbek poet Fakhriyor. Conclusions are drawn about the original artistic ideas in his poems. Certain conclusions are drawn about the style of the author's work, the relationship between meaning and form in his poems.

**Key words:** Uzbek literature, poetry, Fahriyor's work. Analysis and conclusions.

“Asl she'r odamning ichida bo'layotgan dolg'ali talotumlar, omonsiz janglarni ko'rsatish orqali uning ko'nglidan tuyg'usizlik zangini ketkazib, yurakka toza ekin olib kiradi. Bu bilan ham qanoatlanmay, o'sha epkinni bulutga, bulutni yomg'irga aylantiradi va yurak deb atalmish chegarasiz hamda himoyasiz mulkni ezgulik yomg'irlari bilan yuvib, undagi manfaat kirlarini, loqaydlik muzlarini eritadi”. [1, 34-bet]

Darhaqiqat she'r inson qalbini poklovchi, unga fikrlashga va xulosalar chiqarishga va albatta tajriba ottirishga xizmat qiluvchi Olloh mo'jizasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki har birimiz o'qigan satrlarimizda o'zimizni aks ettirishga urinamiz, o'zimizning hayotimizga tatbiq etib ko'ramiz. Shunda anglab yetamizki, hayotimizning bir oni qanaqadir murosasizliklar soxtaliklar, va qoliplarga o'ralashib qolgan va biz ulardan chetlasha olmayotganimizni sezamiz. Shu soxtaliklar



va qoʻlplardan chetlashishga intilish adabiyotimizda yangi yoʻnalish modern sheʼriyatning shakllanishiga olib keldi. Nazarimizda, bugungi oʻzbek modern sheʼriyatining taniqli vakili Faxriyorning asarlari tahlili modern adabiyotning mohiyati borasida fikrlashga yetarlicha asos boʻladi degan umiddamiz. Faxriyor sheʼriyatida biri ikkinchisiga oʻxshamagan oʻxshatishlar, sifatlashlarga duch kelamiz. Ulardagi maʼno turlicha, harorat turlichadir. Masalan:

Odam taroshlamoq boʻlsangiz toshdan,  
toshni silang,  
imkon qadar koʻrgazing mehr.  
Toshlar faqat shafqat oldida  
himoyasizdir.  
Toshga gullar tuting,  
nimpushti gullar-  
shafqat rangidagi gullarni tuting.  
Tosh, albatta, choʻzar qoʻlini,  
gulingizni olar,  
qoʻlingizni oʻpar,  
yigʻlab yuboradi, ishoning, shu tosh. [2. Faxriyor. “Ayolgʻu” 12-bet].

Shoir ushbu sheʼri orqali bir haqiqatni isbot qilinadi. Yaʼni, mehr degan tuygʻu borki, u tosh yurakli insonlarning tosh yuraklarini erituvchi nur deya tasvirlanadi. Insonlarga koʻrsatilgan ozgina mehr-muruvvat ularning tosh yuraklaridan hattoki, yosh tomchilari mavj urishini taʼkidlaydi. Ha bu dunyoda tekin mehrni berish gohida qiyin boʻlib qolgandek, insonlarning qalblari shu mehr suvisiz toshga aylanib qolgandek, shoir shu haqiqatni qalamga olib, mehr ulashishga daʼvat etmoqdadir balki...

Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yoʻldoshev shoir sheʼrlari haqida quyidagicha fikr bildiradi:

“Faxriyorning sheʼrlarini oʻqish ham, uqish ham, taʼsirlanish ham oson emas. Lekin uning bitganlari milliy sheʼriyatimiz taraqqiyotining shunday darajasidirki, uni bilmaslik estetik va maʼnaviy qiyofaning kemptikligiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham bugungi oydin oʻzbek Faxriyor asarlarini oʻqishi, oʻrganishi, tahlil qilishga ehtiyoj sezishi kerak”. (“Noziklashuv jarayoni”)

Qozoqboy Yoʻldoshev. Noziklashuv jarayoni nomli maqoladan olindi.

Toʻgʻri shoir sheʼrlarini tushunish biroz mushkuldir ammo sheʼrning qiymati ham shundadir balki, tezda anglaganlarimiz, tezda xotiramizda qolgan har qanday voqea hodisalar koʻpincha sezilarli iz qoldirmaydi. Qanchalik qiyinchilik bilan anglab yetilganlar esa bir umrga yodda qoladi. Balki shoirning ham maqsadi shudir?

Seni sendan izladim,  
yoʻqsan



Egalari ko‘chib ketgan uy kabi  
bo‘m-bo‘sh turibsan.  
Faqat tashlandiq uyda  
esdan chiqib qolgan mushuk misoli  
ko‘ksingni ichdan  
tirnar bir nima... (“Ayolg‘u” 215-bet.)

Satrlarni bir qarashda anglash mushkuldek, shoir nima demoqchi o‘zi, deb o‘ylaymiz. O‘ziga xoslik shu-da aslida, shoir hukm chiqarmaydi, sizga fikrini bildirmaydi. Sizni yolg‘iz o‘zingiz bilan fikr almashishingizga qo‘yib beradi. Sizni o‘z tuyg‘ularingizni tushunishga yo‘l ochib beradi. Yuqorida ham shoir o‘zining qalbi bilan tillashadi. U qalbidan ”seni o‘zingdan izlayapman- ammo bu dunyo qayg‘u g‘amlaridan berkingan kabi sen yo‘q”,- deydi. Nainki kimsasiz hovlidek bo‘m-bo‘shsan, muhabbatsiz, sevgisizsan, ammo uzoqlashayotgan muhabbat o‘ti yurakka tinchlik bermayapti, uni bezovta qilmoqda, o‘y va xayollar sim-sim og‘riq bermoqda go‘yo.

Umuman, ro‘y bermas voqea,  
Ro‘y berguvchi menman, umuman  
Meni izlab yurar mohiyat,  
Qolip izlab yurar begumon.  
Qofiyalar qiladi ta‘qib,  
Bo‘g‘moq uchun shaylanar bo‘g‘in.  
Poylab turar qaydadir ta‘qiq,  
Ko‘targizar g‘oyalar tug‘in.  
Men ulardan qochayin qayga?  
Qay janubga ketayin uchib?  
Biror kimsa kutmagan joyda  
To‘satdan ro‘y bermoqlik uchun. (“Ayolg‘u”, 119-bet.)

Yuqoridagi she‘rda shoir she‘rning paydo bo‘lishini tasvirlaydi. Har qanday she‘r yurak tug‘yoni, uning iztirobi, sevinchi, quvonchi, dard, muhabbat kabi tuyg‘ular asosida dunyoga keladi. She‘r o‘z- o‘zidan keladi. Uni qoliplarga qamab bo‘lmaydi. Uni qofiyaga zanjirlamaydilar. Uni bitadilar. Qanday kelsa shunday-marjon kabi teradilar. Shunda yurak taskin topadi. Hech bir undashlarsiz, majburlashlarsiz she‘r tug‘iladi.

Qo‘llarim bo‘m-bo‘sh.  
Ko‘tarmoqchi edim boshimga seni  
shu qo‘llarimda.  
Endi bo‘m-bo‘sh qo‘llarimni  
boshimdan baland  
ko‘tarolmay yashayapman.



Bo‘m-bo‘sh qo‘llar og‘irligi. (“Ayolg‘u”, 20-bet)

Muhabbatni ta’riflash naqadar mushkul, uni his etgan ko‘ngillar ajib tuyg‘uga mahkum bo‘lishadi. Undan ayrilish esa musibat go‘yo. Lirik qahramon ham sevganidan ayrilib, endi yolg‘iz, unga bu dunyo tor. Uning qalbi endi azobdan og‘rimoqda. Chunki qalbining sohibini qalb to‘riga eltgan ma’shuq, usiz huvillab qolgan qalbini ko‘tarib yurish og‘irligidan hasrat chekmoqda. Endi qalbini boshqaga tutolmaydi. Chunki u yarador qo‘llarini uzatolmaydi. Ular qalb og‘rig‘idan endi birovga qo‘l cho‘zishga ojiz va kuchsiz.

Bahor hech narsani esdan chiqarmas.

har safar gul qo‘yar

har bir qabr poyiga”. (“Ayolg‘u”, 27 bet.)

Bahor haqida she’r yozmagan shoir bo‘lmasa kerak. Uning go‘zalligi saxovatpeshaligi she’rlardan she’rlarga o‘tib keladi. Shoir Faxriyor ham uni ajib tasvirlaydi. Ko‘rinishidan qisqa satrlar, ammo unda olam haqiqati mavjuddir. Inson tug‘ilibdiki, u yashaydi, unib o‘sadi, xursandchilikni ham, g‘amni ham ko‘radi va umri poyoniga yetadi-yu, qabr deb atalmish hujraning sohibiga aylanadi. Ammo insonlar bir-birlarini xotirlashni yoddan chiqarishadi. Muruvvatli bahor esa ulardan ko‘ngil olishni hech unutmaydi. O‘zining dasta gullarini hadya etadi. O‘tkir Hoshimov aytganidek: ”Bahor qabristonlardan boshlanadi”. [3. O‘tkir Hoshimov. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”, 56-bet].

Xulosa qilib aytganda, Faxriyor o‘ziga xos uslub egasi hamda she’rlari betakror tashbehlardan, ma’nolardan iborat bo‘lgandir. “Hech shubha qilmaymanki, - deydi Umarali Normatov, - agar shoir chinakamiga iste’dodli bo‘lsa, har qanday yo‘sinda go‘zal, g‘oyat go‘zal ash‘or bita oladi. Binobarin, badiiy tafakkurning realistik bosqichi ham, modernistik bosqichi ham, jumladan, ularning o‘ziga xos sintezi bo‘lmish modernistik realizm (Faxriyor kabi yana ko‘plab shoirlarimiz) yuksak san’at namunalarini berishga qodirlar” [4. Umarali Normatov, “Ijod sehri, 274-bet].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qozoqboy Yo‘ldosh. <https://malumot.ru/noziklashuv-jarayoni/>
2. Фахриёр. “Аёлғу”. Шеърлар ва дostonлар. Т.: “Шарқ”, 2000. – 256 б.
3. Ҳошимов Ў. “Дафтар ҳошиясидаги битиклар”. Т.: “Шарқ”. 1998.- 160 б.
4. Норматов У. Ижод сеҳри. — Т.: «Шарқ», 2007. — 352 б.

